

## DORIVOR NA'MATAK VA ZIRK MEVALARINING KIMYOVIY TARKIBI O'RGANISHGA KIRISHISH

Tuychiyev Galibjon Urmanjonovich

Dotsent. Qo'qon universiteti Andijon filiali

Razzakov Nabijon Alijonovich

Dotsent. Qo'qon universiteti Andijon filiali,

[nabijonrazzoqov1973@gmail.com](mailto:nabijonrazzoqov1973@gmail.com)

Ortikov Muhammadibrohim Musojonovich

assistent. Qo'qon universiteti Andijon filiali

+998937841676

### MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-mart 2024-yil

Tasdiqlandi: 26-mart 2024-yil

Jurnal soni: 10

Maqola raqami: 41

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.937>

**KALIT SO'ZLAR/ Ключевые слова/ keywords**

Ekstrakt, β-karotin, provitamin, vitamin A, geksan, immunotrop, antiaterosklerotik faollik, embriogenet, spektrofotometr.

### ANNOTATSIYA

Maqolada na'matak va zirk o'simliklari mevalarining kimyoziy tarkibini fizik-kimyoziy uslublar bilan o'rganish, yangi tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish haqida boradi. O'simliklari mevalari ekstrakti tarkibidagi β-karotin va uning biologik aktivligi, moddalar almashinuvida faol qatnashib, odam organizmida bir qator kasalliklarni oldini olishi hamda davolovchi hususiyatlari bayon qilingan. Na'matak va zirk mevalari tarkibidagi betta - karotin miqdorini spektrofotometrik usulda aniqlash hamda bir nechta biogen elementlarning miqdoriy taxlilini optik-emission spektrometrda o'tkazilishi haqidadir.


**Kirish.** Dunyo bo'ylab tabiiy dorivor mahsulotlarga insonlarning talabi keskin ortib borayotgan bir vaqtida, hayvon yoki dorivor o'simlik asosida yangidan-yangi shifobaxsh dori vositalari va tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalari yaratish olimlarning oldida turgan birlamchi vazifalardan biridir. Tabiiy oziq-ovqat qo'shilmalarining xafsizligi hamda samaradorligi esa, xalq tabobatining ko'p asrlik tajribasi bilan tasdiqlangandir (.Аскаров И.Р., 2019).

Hozirda kasalliklarning rivojlanishiga turki bo'layotgan ko'plab omillar ichida, ayniqsa bolalar orasida to'yib ovqatlanmaslik, xususan, hayotiy muhim mikroelementlarning yetishmasligi bugungi kunda alohida ahamiyatga ega. Turli mamlakatlarda o'tkazilgan ko'plab tadqiqotdar A vitaminining inson organizmidagi bir qator fiziologik

jarayonlardagi rolini aniqladi, masalan, immunitetizimining faoliyati, hujayra o'sishi va embriogenezkabi muhim jarayonlarni sanash mumkin.

Odatda, odam organizmining sutkalik A vitaminga bo'lgan talabining 75% ni xayvon mahsulotlari orqali qondirilsa, qolgan 25% ni esa, o'simlik mahsulotlarini iste'mol qilish yo'li bilan to'ldiriladi. Shunga qaramay, A vitamini yetishmovchiligi muammosining dolzarbligi asosan uning yer yuzida ishlab chiqariladigan barcha oziq-ovqat mahsulotlaridagi umumiy miqdori aholining fiziologik ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli bo'limayapti (UNICEF, 1998).

Hammasi bo'lib besh yuzga yaqin karotinoидlar ma'lum bo'lib, ular ichidan eng mashhuri β-karotindir. U provitamin bo'lib, jigarda A vitaminiga aylanadi (Тутелян.Б.А , 2002). Quyida ushbu biologik faol birikmaning tuzilish formulasi berilgan:



Biz yashil va sariq sabzavotlar (sabzi, pomidor, qovoq, bulg'or qalampiri, ismalloq, yashil piyoz), dukkanlilar (soya, no'xat), shaftoli, o'rik, olma,nok, uzum, tarvuz, qovun kabi mahsulotlarni iste'mol qilish orqali organizmimizga β-karotinlarni qabul qilamiz. Odatda iste'mol maxsulotlari orqali tushgan beta - karotinning 30% atrofidagi qismi ovqat xazm qilish tizimi orqali so'rildi va uning taxminan 50 - 60% organizmida vitamin A ga aylanadi.Ushbu moddaning xar 6 mg miqdoridan 1 mg retinol xosil bo'ldi.

Dermatologlarning xulosasiga ko'ra, beta - karotin inson organizmda uchta katta muhim ahamiyatga ega qaysiki- vitamin A ning manbai, antioksidant hamda quyoshdan kelayotgan turli intensivlikdagi nurlardan himoya qiladi. Shu bilan birga beta - karotindan hosil bo'lgan A vitaminini teri hujayralarining o'sishi va uning normal tuzilishiga katta xissa qo'shadi (Ю.Б.Сепреев ва М.О.Переверзев, рус. 2006).

Bugungi kunda ma'lum bo'lgan 500 ga yaqin karotinning 60 ga yaqini hisoblanadi A vitaminini sintezining dastlabki bosqichlari deb

kelinadi va taxminan uning 110 tasi faollikda vitaminning o'zidan ham samaraliroq hisoblanadi. A vitamini organizmda to'planadi va zaruriy o'rinn bo'lganda ishlataladi. A vitaminiga bo'lgan kunlik ehtiyojning taxminan 50% hayvonot mahsulotlari bilan qoplanasa, qolgan qismi esa o'simlik mahsulotlari iste'moli orqali qoplanadi (S. Ye. Saparklicheva, ing. 2021).

β-karotin immunotrop bo'lishi bilan bir qatorda antiaterosklerotik faollik bilan ham ajralib turadi (Погабало А. Б, рус. 2000). Yana uni onkologik kasalliklarning oldini olish va davolash, xususan, operatsiyadan keyin o'simtaning qayta paydo bo'lishining oldini oluvchi vositasi sifa tida foydalinish mumkin.

Tabiiy biologik faol moddalardan betta-karotin, alohida qiziqish uyg'otishi mumkin. O'tgan yigirma yil ichida ishonchli dalillar to'plandi. Betta -karotin, vitamin C va E vitaminini o'z ichiga olgan kompleks preparatlar immunomodulyator va antioksidant ta'sir ko'rsatishi bilan birga, yallig'anishga qarshi va adaptogen ta'sirga ega bo'lib, lipid

metabolizmini normallashtirishga yordam beradi va tezroq shikastlangan shilliq pardalarni qayta tiklash. Olimlarning olib borolgan klinik tadqiqoto natijalariga ko'ra : tez-tez kasalllikka chalinuvchi bolalarga 2% betta-karotin eritmasini bir oy davomida 0,5 mg dozada qo'llash lipid peroksidlanish mahsulotlarining ikki baravar pasayishiga va qon plazmasining antioksidant faolligini sezilarli darajada oshirishga yordam bergen (Плаксин В. А, пyc. 1998). Bundan tashqari, yosh bolalarda betta-karotinni qabul qilishda hujayra immunitetida muvozanatga erishish bilan birga, hatto atopik dermatitning og'ir shakkllarida ham, relapslarning o'rtacha davomiyligining kamaytirish SCORAD indeksida tendentsiyasi kuzatildi va takroriy davolash kurslari bilan sezilarli pasayish kuzatildi. (Веркович Н. Б, пyc. 2000).

Betta-karotin nafaqat o'tkir respiratorli virusli infektsiyalar (O'RV) bilan kasallish ehtimolligini kamaytiradi, balki kasallikning davomiyligini qisqartiradi, klinik simptomlarning yengillashtiradi va buning oqibatida kasallik asoratlarning ko'rnishi kamayadi.  $\beta$ -karotin va askorbin kislotani birgalikda qo'llash atopik dermatit bilan og'rigan bolalarda antigistaminlarga bo'lgan ehtiyojni ikki baravar kamaytirish imkonini beradi. Bu allergenga xos va umumiyl immunoglobulin E ning ko'payishini oldini oladi, allergenga xos burun va terining teskari turdag'i reaksiyasini pasaytiradi va lipid peroksidlanish jarayonlarini optimallashtiradi (Игорбайло. А.Б., пyc. 2000).

Na'matak erta bahorda chirolyi oq yoki pushti rangli gullaydigan, kuzga borib pishib yetilgan mevalar bilan quvontiradigan ko'p yillik buta. Xalq orasida bu o'simlik (kyovvoyi atirgul) deb ham ataladi. Odatda na'mataknинг tabobatda 13 ta turlaridan foydalaniolib, ulardan serquyosh yurtimizda 3 ta turi eng ko'p uchraydi. Itburun turlari (Shipovnik sobachiya- Rosa canina), Fedchenko na'matagi (Shipovnik Fedchenko - Rosa fedtschenkoana), Begger na'matagi (oqxargul) -(Shipovnik Beggera-Rosa beggeriana Sehrenk) Toshkent, Andijon, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Farg'ona, Namangan, Qashqadaryo, Surxon-daryo viloyatlaridagi bog'larda,dalalarda,tog'larning tog'li yonbag'irlarida hamda tog'larning o'rta va yuqori qismidagi suv bo'yalarida,archazorlarda,yong'oqzorlarda o'sadi ( Аскаров.И.Р ва Раззаков.Н.А, 2022 ).

**Adabiyotlar tahlili.** Zirk, zirkdoshlar (Berberidaceae) oilasiga mansub, bo'y esa 1,5-2 m ga yetadigan tikanli buta.Tikanlari oddiy yoki uch bo'lakli bo'lib,barglari tuxumsimon,teskari, qalin, qisqa bandli, ketma-ket joylashgan bo'lib, ushu bo'simlik sariq rangda qo'sh gul-qo'remli, shingila to'plangan holda gullaydi va mevalar nordon ta'mga ega bo'ladi hamda pishgan vaqtida qizil rangda bo'lib,quiritilganda esa qora tusga kiradi,shuning uchun zirkni xalq tilida "qora zirk" deb nomlanadi.Qora zirk keng iste'mol qilinganligi uchun uning tusiga nisbat berib "qoraqand" ham deb ataladi.

O'zbekiston respublikasining, Farg'ona viloyati Shoximardon, Namangan viloyatining Chust tumani va Surxondaryo viloyati Boysun

tumani xududlarining tog' yon bag'irlarida, qo'shni Qирг'истон respublikasining Arlanbob tog' oldi xududlarida zirkni uchratishimiz mumkin. Insoniyat qadimdan zirkdan juda ko'p kasalliklarni davolash hamda ularni oldini olish maqsadlarida foydalanim kelgan. Ma'lumki, o'simliklarning dorivorligi uning kimyoviy tarkibiga bog'liqidir. Aynan dorivor o'simliklar o'z tarkibida biologik faol moddalarni tutganligi sababli xalq tabobatida qo'llanib kelingan.

Tadqiqotimizda biz o's oldimizga serquyosh O'zbekiston iqlim sharoitlarida o'sayotgan dorivor na'matak (Rosa canina) hamda zirk (Berberis oblonga Schneid) o'simliklari kimyoviy tarkibini o'rganishni va shu asosida shifobaxsh, yangi oziq-ovqat qo'shilmalari olishni maqsad qilib oldik. Tadqiqotimiz yo'nalişlaridan biri, na'matak hamda zirk o'simliklari mevalari tarkibidagi  $\beta$ -karotiniga qaratdik.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Laboratoriya sharoitida namunalar tarkibidagi karotinoidlar miqdorini aniqlashda spektrofotometrik uslubdan foydalanim, na'matak va zirk mevasi tanlab olindi. Tahsil uchun na'matak va zirk mevalari (aniq tortilgan AF 2204N , aniqlik darajasi 0.1 mg) 5g tortib olinib, 1mm diametr o'chamga qadar maydalandi va 100 ml sig'imli kolbaga solindi. Erituvchi sifatida 25 ml geksan ( $C_6N_{14}$ -kimyoviy toza, TU 2631-003-) bilan ekstraksiya qilindi. Jarayon 90 daqiqa davomida magnitli aralashsirgichda (MSH-300 BIOSAN, Latviya) amalga oshirildi. Yakunlangach olingan ekstrakt filtrlanadi. Filtratdan 1 ml olinib 25 ml li o'chov kolbasiga solindi va kolba belgisigacha erituvchi bilan suyultirildi. Karotinoidlar miqdorini NACH LANGE DR 3900 (Germaniya) spektrofotometrida aniqlandi (spektral to'iqin uzunligi diapazoni,300-800nm). Karotinoidlar miqdorini aniqlash jarayoniga paralel ravishda kaliy bixromat ( $K_2Cr_2O_7$ )ning 0.04 % li eritmasini solishtirish maqsadida tayyorlanib optik zichligi aniqlab olindi.

**Tadqiqot natijalari.** Distirlangan suv, (BIOSAN, Latviya) paralel ravishda kaliy bixromat(GOST 4220-75 kimyoviy toza) eritmasining optik zichligi (0,04%) o'chandi. Na'matak va zirk mevasi (X) xomashyosidagi umumiy karotin miqdori  $\beta$ -karotin bo'yicha mg% formula bo'yicha hisoblangan (Ye.Ye.Kurdyukov, 2020).

$$X = \frac{D_1 \times 0.00208 \times 25 \times 25 \times 100 \times 100}{D_0 \times m \times 1 \times (100-w)}$$

Formuladagi;  $D_1$ -tekshirilayotgan ekstraktning optik zichligi,  $D_0$  - kaliy dixromatning standart namuna eritmasi ya'ni namunaviy eritmaning optik zichligi, 0,00208 - kaliy dixromatning standart namuna eritmasiga mos keladigan eritmadiagi  $\beta$ -karotin miqdori (mg), m - xomashyo namunasi (g). Quyidagi jadvalda na'matak hamda zirk mevalari ekstrakti tarkibidagi karotinoidlarga xos spektrofotometrik taxlili natijalari berilgan;

**Jadval.1**  
**Eksperiment natijalari – o'simlik mevalari tarkibidagi betta karotin miqdori**

O'simlik nomi	Ekstragent turi	Namuna va ekstragent nisbati	Maydalanganlik darajasi ( mm)	Ekstraksiya vaqtি (daqiqa)	$\beta$ – karotin miqdori (mg)
Na'matak	Geksan	1: 5	1	90	34,58
Zirk	Geksan	1: 5	1	90	19,41

Olib borilgan tadqiqot natijalariga e'tibor qaratilsa, itburun na'matagi (Rosa canina) mevasi tarkibida  $\beta$  – каротин мидори 34,58 mg ni tashkil qilsa, zirk (Berberis oblonga Schneid) mevasi tarkibida esa ushbu biologik faol birikma 19,41 mgni tashkil qilar ekan. Shunday qilib dorivor na'matak mevasi zirk mevasiga nisbatan betta – karotinga boy ekanligi isbotlandi.

Tadqiqotning keyingi yo'nalişida na'matak va zirk mevalari tarkibidagi ba'zi muhim makro- va mikroelementlar taxliliga qaratildi. Namunalar tarkibidagi makroelementlarni avio 200 (OES) optik emission spektrometrik usulida aniqlandi. O'simlik mevalari aralashmasi maydalanim so'ng etanol-suv (70-30) aralashmasi bilan TN-300 rusumli vakuumli ekstraktorda past haroratda ekstraksiya qilindi. Olingan ekstrakt namunasidan 1 ml olinib 40 ml ga bo'lguncha disstillangan suv (BIOSAN, Latviya) bilan suyultirildi.Kolbadagi eritma avtonamuna olish bo'limidagi maxsus probirkalarga solinib analiz olish uchun joylashtirildi. Tayyorlangan namuna analiz uchun Avio 200 OES Induktiv bog'langan plazmali Optik emission spektrometri (Perkin Elmer, AQSH)da analiz qilindi. Qurilmaning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, eritma tarkibidagi elementlarni 10-9 g aniqlikkacha o'chash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda ekstrakt tarkibidagi ba'zi muxim makro- va mikroelementlar uchun olib borilgan taxlil natijari berilgan.

Jadval.2  
Eksperiment natijalari - O'simliklar ekstraktining element tarkibi

Biogen element nomi	Mg	Na	K	Ca	P	S	Fe	Zn
Miqdori (mg/l)	264,8	17,92	852	210,4	160,08	0,104	3,36	1,84

Ushbu dorivor o'simlik mevvvalari ekstrakti alkaloidlар jamlanmasiga xam ega ekanligi kimyoviy sifat taxilil yo'li bilan aniqlangan (Аскаров.И.Р ва Рazzakov.Н.А, 2022).

Flavonoidlarga xos sifat tahlilini 1% li FeCl<sub>3</sub> eritmasi orqali o'tkazilganda, natijada yorqin-zangori rang hosil bo'lishi bilan ekstract flavonoid (5-OH guruh tutuvchi)larga ega ekanligini tasdiqladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, karotinoidlar turli konsentratsiyadagi spirt, aseton, geksan, xloroform va boshqa organik erituvchilarida eriydi (Rahiman.R va boshqalar, 2013). Ularni o'rganish natijasida, dorivor o'simlik tarkibidan karotinoidlarni ajratib olish uchun eng optimal ekstragert geksan

ekanligi ma'lum bo'lgani uchun, ekstraksiya geksanda olib borildi. Spektrofotometrda 400-500 nm to'lqin uzunliklari oralig'i dagi maksimal optik zichlikka ega bo'ldi. Ekstraktda 426±2nm, 450±2nm va 478±2 nm to'lqin uzunliklarda asosiy yutilish maksimumlari β-karotin uchun xos bo'ldi.

Demak, na'matak mevasidan olingen ekstract tarkibida 5,2mg% va zirk mevasidan olingen ekstraktimiz tarkibida esa 2,9 mg% β-karotin mavjudligi aniqlandi. Shu bilan birga muhim biogen elementlar saqlaganligi va yana alkaloidlar, vitaminlar hamda flavonoidlar tutishi isbotlandi.

#### Foydalanimigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аскаров.И.Р., 2019 , “Табобат қомуси” Тошкент, “Мумтоз сўз” 595 б
2. The State of the World’s Children. FocusonNutrition. UNICEF, 1998. www.unicef.org/sowc98/mainmenu.htm
3. Тутельян В. А., Спиричев.В. Б., Суханов.Б.П., Кудашева.В.А. 2002, Микронутриенты в питании здорового и больного человека. Москва:Колос;стр.424
4. Погабало. А.В. 2000. Иммунотропная активность природного карнитин-токоферолового комплекса: Автореф.дис....канд.мед.наук.Москва.; стр.25.
5. Курдюков.Е.Е., Семенова.Е.Ф., Моисеева.И.Я., Гаврилова.Н.А., Пономарева. Т.А. 2020, “Количественное определение суммы каротиноидов в плодах дерезы китайской lyciumchinensemill”. Химия растительного сырья , №3, стр.140
6. Аскаров.И.Р., Раззаков Н.А., 2022 “Намматақнинг кимёвий таркиби асосида ундан биологик фаол янги озиқ-овқат кўшилмалари олиш” Xalq tabobati plus, Тошкент, №2 (11), 216
7. Rahiman.R., Mohd Ali.M.A.., Ab-Rahman.M.S. 2013, International Journal of bioscience, biochemistry and bioinformatics, vol.3,no.5,pp.446–472.
8. Сергеев.Ю.В и ПереверзевюМ.О., 2006, Применения бета-каротина в дермотологии , Иммунопатология, аллергология, инфекция. №3. стр.21
9. Сапаркличева.С. Е., 2021. The content of carotene (provitamin a) in plants and its physiological significance
10. Плаксин В. А. Влияние синтетического. 1998. β-каротина на клинико- иммунологические параметры часто болеющих детей: Автореф. дис. . . . канд. мед. наук. Архангельск, стр.23
11. Веркович.Н. В. 2000. Иммунал и Веторон в комплексной терапии детей первых трех лет жизни, больных атопическим дерматитом: Автореф. дис. . . . канд. мед. наук. Москва., стр. 22
12. Погабало А. В. 2000. Иммунотропная активность природного карнитин-токоферолового комплекса: Автореф. дис. . . . канд. мед. наук. Москва., стр.25
13. Данильчева И. В. 1997. Сравнительная клинико-иммунологическая характеристика специфической иммунотерапии поллинозов водно-солевыми аллергенами из пыльцы тимофеевки в сочетании с бета-каротином и аскорбиновой кислотой: Автореф. дис. . . . канд. мед. наук. Москва., стр.23
14. Аскаров .И.Р ва Раззаков Н.А., 2022 , Намматақнинг кимёвий таркиби ва ундан халқ табобатида фойдаланиш, Xalq tabobati plus, № 1 (10) 14 б
15. Аскаров .И.Р ва Раззаков Н.А., 2022 , Зиркнинг кимёвий таркиби ва унинг халқ табобатидаги ўрни, Xalq tabobati plus, № 1 (10) 35 б